

TIL O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKT VA AN'ANAVIY METODLARNI TAQQOSLASH

Turg'unboyeva Sevara Uchqunjon qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti(xitoy tili) 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada til o'rganishda sun'iy intellekt va an'anaviy metodlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar ko'rib chiqilgan. Maqolada an'anaviy o'qitish usullarining afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari tahlil qilingan. Jumladan, ChatGPT va Duolingo kabi vositalarning til o'rganishdagi roli haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada har ikkala metodni birgalikda qo'llash eng samarali natija berishi mumkinligi ta'kidlangan. Ushbu ish til o'rganayotgan o'quvchilar va o'qituvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, til o'rganish, an'anaviy metodlar, zamonaviy ta'lim, til kompetensiyasi, interaktiv o'qitish, mustaqil ta'lim, innovatsion texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, raqamli platformalar, ChatGPT, Duolingo, o'qitish usullari, ta'lim jarayoni, bilim olish

Аннотация. В данной статье рассматриваются различия и сходства между искусственным интеллектом и традиционными методами в изучении языка. В статье анализируются преимущества и недостатки традиционных методов обучения, а также возможности современных технологий искусственного интеллекта. В частности, рассматривается роль таких инструментов, как ChatGPT и Duolingo в процессе изучения языка. Также в статье подчеркивается, что совместное использование этих методов может дать наиболее эффективный результат. Данная работа может быть полезна для учащихся и преподавателей.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, изучение языка, традиционные методы, современное образование, языковая компетенция, интерактивное обучение, самостоятельное обучение, инновационные технологии, эффективность обучения, цифровые платформы, ChatGPT, Duolingo, методы обучения, образовательный процесс, получение знаний

Abstract. This article examines the similarities and differences between artificial intelligence and traditional methods in language learning. It analyzes the advantages and disadvantages of traditional teaching approaches, as well as the opportunities provided by modern artificial intelligence technologies. In particular, the role of tools such as ChatGPT and Duolingo in language learning is discussed. The article also emphasizes that combining these methods can lead to more effective results. This work can be useful for students and teachers.

Keywords: Artificial intelligence, language learning, traditional methods, modern education, language competence, interactive learning, independent learning, innovative technologies, learning effectiveness, digital platforms, ChatGPT, Duolingo, teaching methods, educational process, knowledge acquisition

Kirish. Hozirgi kunda texnologiyalar kundan kunga jadal rivojlanmoqda va bu rivojlanish ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmayapti. Ayniqsa, sun'iy intellekt jadal rivojlanganib, til o'rganish ham ancha osonlashmoqda. Oldinlari asosan o'qituvchi yoki kitoblar yordamida o'rganilgan bo'lsa, hozir turli xil dasturlar va ilovalar yordamida o'rganilmoqda.

Asosiy qism. An'anaviy metodlarda asosan o'qituvchi asosiy rol o'ynaydi. Darslar sinfxonalarda, kitoblar va daftarlar orqali bilim oladilar. Bu usul ancha yillardan beri foydalanib kelinmoqda. Va bu usulning foydali tomoni, o'qituvchi o'quvchi bilan bevosita aloqa qiladi. O'quvchi qiziqqan savolini, tushunmagan joylarini o'qituvchiga beradi va darhol javob oladi. Ammo bu usulning kamchiliklari bor. Masalan, birinchisi vaqt cheklangan bo'ladi. Dars tugashi bilan o'quvchi darsni tark etishi kerak bo'ladi. Ba'zi o'quvchilar esa mustaqil o'rganishga kamroq harakat qiladilar. Ikkinchisi, o'qituvchi har bir o'quvchiga bir xil e'tibor qarata olmaydi. Chunki guruhda(sinfda) 10tadan ziyod o'quvchi bor, o'qituvchi esa har biri bilan alohida ishlashga vaqt kamlik qiladi. Biroq hozirgi paytda esa sun'iy intellekt yordamida til o'rganish jadal rivojlanmoqda. Masalan, turli ilovalar, dasturlar yordamida mustaqil o'rganish mumkin. Bu usulning eng afzal tomoni xohlagan vaqtida istaganicha o'rganishi mumkin. Yana bir qulay tomoni, o'rganuvchi o'z darajasiga mos bosqichdan boshlab o'rganadi. Dastur yoki ilovalar hatolarni avtomatik tog'irlaydi va qo'shimcha mashg'ulotlar beradi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida Duolingo, ChatGPT kabi sun'iy intellektlardan foydalanish keng tarqalmoqda. Biroq bu usulning ham kamchiliklari yo'q emas. Masalan, jonli muloqot yetishmaydi. Bazida dasturlar ishlamay qolishi, noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan javob berishi mumkin. Qo'shimcha qilsak, agar gadjetlar masalan internet, komputer yokida telefon bo'lmasa bu usuldan foydalana olmaymiz. Agar ushbu ikki usulni taqqoslab ko'radigan bo'lsak, har ikkala metodning ham o'ziga xos tomonlari bor. Masalan, an'anaviy metodda ko'proq jonli muloqot, o'qituvchi bilan bevosita munosabat bo'lib, bu nutqni rivojlantirishga va tezroq bilim olishga yordam beradi. Sun'iy intellekt esa bizga judayam ko'p qulayliklar beradi. Undan o'zimiz istaganicha va istagan vaqtimizda foydalanishimiz va ko'proq o'z ustimizda ishlashimiz mumkin.

Menimcha, eng yaxshi usul bu ikkala usulni ham qo'llash. Darsda o'qituvchi bilan ko'proq munosabatda bo'lishimiz, vaqtimiz yetgunicha qiynalgan, qiziqqan savollarimizni berib o'rganib, uyda esa dastur va ilovalardan foydalanib o'rganganlarimizni yanada chuqurroq takrorlab mustaqil o'rganishimiz kerak. Va bu usul esa o'quvchiga yanada ko'proq samarali bo'ladi. Shu bilan birga faqatgina sun'iy intellektga bog'lanib qolish ham to'liq samarali emas, chunki unda jonlilik va real hayotiy tajriba yetishmaydi. An'anaviy metodlarda esa texnologik imkoniyatlar cheklangan bo'lishi mumkin, lekin unda jonli muloqot bor, og'zaki nutqni rivojlantirishda bu muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bu ikki metodlarning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. Va bu ikki metoddan birini tanlash o'rniga ikkalasidan ham unumli foydalansak bilim olish samaradorligi ancha oshadi. Umuman olganda keyingi yillarda sun'iy intellekt ta'lim sohasiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu degani, an'anaviy ta'limni ham yo'qotib yubormaydi balki yanada takomillashtiradi. Va bu har bir o'rganuvchi uchun til o'rganish yanada osonlashadi demakdir. Shu sabadan, har ikkala yondashuv bir-birini to'ldiradi, va bulardan oqilona foydalanish eng samarali yo'l hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UNESCO. (2021). Artificial intelligence in education. UNESCO Publishing.
2. Internet manbalari. (2024). Turli onlayn resurslar asosida foydalanildi.
3. OpenAI. (2024). ChatGPT and AI tools. <https://www.openai.com> □
4. Duolingo. (2024). Language learning platform. <https://www.duolingo.com> □

5. Pedagogika bo'yicha darsliklar. (2020). Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanmalar.
6. Noam Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press.
7. British Council. (2023). Teaching English resources. <https://www.britishcouncil.org>
8. Cambridge University Press. (2020). English language teaching materials. Cambridge University Press.
9. Oxford University Press. (2020). English language teaching resources. Oxford University Press.
10. Chet tilini o'qitish metodikasi bo'yicha darsliklar. (2021). O'quv-uslubiy qo'llanmalar.